


## ISTE'MOL BOZORI (2019 yil yanvar - sentabr\*)

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar - sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 %ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,0 % ni, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,0 % ni i tashkil etdi.

1-diagramma

Chakana savdo aylanmasi tarkibi, %da



1-jadval


Jami chakana tovar aylanmasi

	2018 yil		2019 yil		O'sish sur'ati
	Qiymati (mln. so'm)	Ulushi (%)	Qiymati (mln. so'm)	Ulushi (%)	
Jami chakana tovar aylanmasi	3334617,5	100,0	4079057,5	100,0	108,4
Yirik korxonalar	245512,2	7,4	366991,8	9,0	132,4
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	3089105,3	92,6	3712065,7	91,0	106,5


\*dastlabki ma'lumot

**Chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlarining oylar kesimida dinamikasi  
o'tgan yilning mos davriga nisbatan foyizda**

**2-diagramma**




**3-diagramma**  
**2019 yil yanvar - sentabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi (mlrd. so'm)**



4-diagramma


**2019 yil yanvar - sentabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati, %da)**



Viloyatning ko'p hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriyoq o'sish sur'atlari Sharof Rashidov tumani (13,7 % ga), Jizzax shahri (11,1 % ga), Forish tumanida (8,9%ga), Dostlik tumanida (6,1% ga), Mirzacho'l tumanida (6,0 % ga), nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Yangiobod tumanida (4,5 % ga), Arnasoy tumanida (4,6%ga) o'sish kuzatildi.

5-diagramma

### Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri (27,3 %), Zomin tumani tumani (16,1 %), Sharof Rashidov tumani (14,6 %), Baxmal tumani (8,4 %) va G'allaorol tumani (7,8 %) ko'rsatkichi bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Aholi jon boshiga O'tgan yilning  
chakana savdo shu davriga  
tovar aylanmasi, nisbatan,  
ming so'mda % da

Jizzax viloyati	2 991,8	106,1
<i>shahar:</i>		
Jizzax	6 360,6	109,2
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2 211,8	103,0
Baxmal	2 229,7	103,6
G'allaorol	1 883,1	103,1
Sharof Rashidov	2 748,1	110,4
Do'stlik	2 496,5	104,3
Zomin	4 070,4	103,6
Zarbdor	1 649,4	103,4
Zafarobod	1 915,9	103,2
Mirzacho'l	2 544,5	104,1
Paxtakor	2 766,1	103,5
Forish	1 978,1	107,2
Yangiobod	1 511,3	102,6

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 6,1 % ga oshib, 2991,8 ming so'mni tashkil etdi. (2018 yil yanvar - sentabr oylarida 2497,7 ming so'mni tashkil qilgan edi).




O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax shahri (6360,6 ming so'm), Zomin tumani (4070,4 ming so'm) Paxtakor tumani (2766,1 ming so'm) va Sharof Rashidov tumanida (2748,1 ming so'm) kuzatildi.


Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi joriy yilning yanvar - sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,9 % ga oshdi.

**6-diagramma**

### Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)



7-diagramma

**Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da**

Viloyatning ko'p hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Forish tumani (192,6 % ga), Paxtakor tumanida (105,7 % ga), Mirzacho'l tumani (105,6 % ga), va Zomin tumani (105,3 % ga), nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (101,7 %) ga, Yangiobod tumanida (93,0 %ga) kamayishi kuzatildi.


**Kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 91,0 % ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 2542,7 mlrd. so'mini norasmiy sektor, shundan 238,7 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Jami norasmiy sektorning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 62,3 % ni tashkil etdi.

**8-diagramma**

**Jami chakana savdo aylanmasida  
Kichik tadbirkorlikning ulushi, % da**



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Sharof Rashidov tumanida 99,8 %, Zafarobod tumanida 99,2 %, Arnasoy tumanida 99,2 %, Yangiobod tumanida 98,8 %, Zarbdor tumanida 98,1 % va eng past ulush Jizzax shahrida 76,9 %, Baxmal tumanida 87,6 % qayd etildi.

## Norasmiy sektor kuzatuvlari


### 1-Bozor oylik kuzatuvi

1-Bozor oylik kuzatuvlarida viloyatdagi 22 ta dexqon bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qiluvchi jismoniy shaxslar bilan kuzatuvlar o'tkazildi.

Yanvar - sentabr oyi kuzatuvi natijasida bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qiluvchi 770 ta jismoniy shaxslar bilan kuzatuv o'tkazildi. Bunda: 770 ta shaxs (bozor ma'muriyatidan olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi shaxslar sonining 16,6 %i) kuzatilgan.

9-diagramma

### Kuzatuvga tushgan qishloq xo'jalik mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning o'rtacha bir oylik tovar aylanmasi (mln. so'm)




## 1-Bozor (chorva) oylik kuzatuvi

1-Bozor (chorva) oylik kuzatuvlarida viloyatdagi 18 ta chorva ob'ektlarida savdo qiluvchi chorva sotuvchilari bilan kuzatuvlar o'tkazildi.

Yanvar - sentabr oyi kuzatuvi natijasida chorva savdosi bilan savdo qiluvchi 907 ta jismoniy shaxslar bilan kuzatuv o'tkazildi.

**10-diagramma**

### Kuzatuvga tushgan chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning o'rtacha bir oylik tovar aylanmasi (mln. so'm)




## Kuzatuvga tushgan chorva mollari bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar sonining hududlar kesimidagi holati

Arnasoy 50 ta, Baxmal 150 ta, G'allaorol 152 ta, Sharof Rashidov 100 ta, Do'stlik 50 ta, Zomin 151 ta, Zarbdor 50 ta, Mirzacho'l 50 ta, Paxtakor 50 ta, Forish 50 ta, Yangiobod 50 ta, Jizzax shahar 4 ta Viloyat bo'yicha 907 tani tashkil etdi.

11-diagramma

1-Bozor (chorva) oylik kuzatuvida tumanlarning ulushi, % da



**2019 yilning yanvar - sentabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi**

2019 yil yanvar - sentabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1657,0 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 118,3 %ni tashkil qildi.


**3-Jadval****2019 yil yanvar - sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi  
(mlrd. so'm)**

	Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mird so'mda	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	1657,0	118,3
<i>shahar:</i>		
Jizzax	645,7	110,6
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	36,7	143,0
Baxmal	52,4	107,1
G'allaorol	36,3	108,9
Sharof Rashidov	223,3	123,0
Do'stlik	87,3	114,8
Zomin	139,0	118,1
Zarbdor	81,9	128,9
Zafarobod	42,2	160,1
Mirzacho'l	48,1	174,2
Paxtakor	51,8	137,6
Forish	164,9	119,3
Yangiobod	47,4	118,6

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari G'allaorol tumanida (108,9 %), Baxmal tumanida (107,1 %) kuzatildi.

12-diagramma

### Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 116,0 % ni qayd etdi va 976,5 mlrd. so'mga yetib, umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 58,9 %ni tashkil qildi.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi.

Nashr uchun mas'ul: H.Holmatov  
(0371) 230-83-45